



2023- yil yanvar-avgust oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **559,1 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **62,8 mln. AQSH** dollariga yoki **12,7 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **559,1** +62,8 %

(2022- y.: **496,2**)



Saldo

2023- y.: - **93,9** (2022 y.: - **100,2**)



Eksport

2023- y.: **232,6** +34,5 %

(2022- y.: **198,0**)



Tovarlar: **231,2**



Xizmatlar: **1,4**



Import

2023- y.: **326,5** +28,3 %

(2022- y.: **298,2**)




Tovarlar: **268,4**













Xizmatlar: -

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **232,6** mln. AQSH dollariga (**17,4 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **326,5** mln. AQSH dollariga (**9,5 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **93,9** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

<p>Rossiya</p> <p>TSA – 87,2</p> <p>Eksport: 36,1 Import: 51,1</p> <p> 15,6 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 106,4</p> <p>Eksport: 32,8 Import: 73,6</p> <p> 19,0 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 110,2</p> <p>Eksport: 110,1 Import: 0,0</p> <p> 19,7 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 158,8</p> <p>Eksport: 20,7 Import: 138,2</p> <p> 28,4 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 23,8</p> <p>Eksport: 12,7 Import: 11,1</p> <p> 4,3 %</p>
<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1,1</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 1,1</p> <p> 0,2 %</p>	<p>Litva</p> <p>TSA – 7,9</p> <p>Eksport: 0,2 Import: 7,7</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 1,7</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 1,7</p> <p> 0,3%</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 6,4</p> <p>Eksport: 5,7 Import: 0,7</p> <p> 1,1 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 7,1</p> <p>Eksport: 2,1 Import: 5,0</p> <p> 1,3 %</p>

Sirdaryo viloyati jahonning 64 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**15,6 %**), XXRda (**19,0 %**), Afgʻonistonda (**19,7 %**), Qozogʻistonda (**28,4 %**), Turkiyada (**4,3 %**) va Koreya Respublikasida (**0,2 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qoʻshni davlatlar bilan oʻzaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini koʻrish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Afgʻoniston, Qirgʻiz Respublikasi va Qozogʻiston kabi qoʻshni davlatlar bilan TSAda soʻnggi yillarda katta oʻzgarishlar kuzatilmoqda.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BOʻLGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



Afgʻoniston – 110,2



Turkmaniston – 0,2



Turkiya – 23,8










Tashqi iqtisodiy faoliyat boʻyicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afgʻoniston, Turkiya va Turkmaniston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.













SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Rossiya	122,8	74,1	87,2
 <i>Eksport</i>	29,3	39,7	36,1
<i>Import</i>	93,5	34,5	51,1
XXR	82,2	87,9	106,4
 <i>Eksport</i>	32,0	36,0	32,8
<i>Import</i>	50,2	51,9	73,6
Germaniya	20,6	6,5	3,2
 <i>Eksport</i>	-	1,2	0,1
<i>Import</i>	20,6	5,3	3,1
Qozog'iston	113,3	130,2	158,8
 <i>Eksport</i>	14,4	16,0	20,7
<i>Import</i>	98,9	114,2	138,2
Turkiya	16,4	25,1	23,8
 <i>Eksport</i>	7,1	14,9	12,7
<i>Import</i>	9,3	10,2	11,1
Koreya Respublikasi	2,1	7,2	1,1
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	2,1	7,2	1,1
Litva	2,3	1,2	7,9
 <i>Eksport</i>	-	-	0,2
<i>Import</i>	2,3	1,2	7,7
Fransiya	0,9	1,0	1,7
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,9	1,0	1,7

Davomi

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 Qirg'iz Respublikasi	3,4	6,7	7,1
<i>Eksport</i>	2,9	2,1	2,1
<i>Import</i>	0,5	4,6	5,0
 Afg'oniston	56,2	61,9	110,2
<i>Eksport</i>	56,2	60,9	110,1
<i>Import</i>	-	1,0	0,1
 Belarus	0,7	1,0	1,2
<i>Eksport</i>	0,0	0,4	0,3
<i>Import</i>	0,7	0,6	0,9
 Hindiston	0,6	1,1	2,1
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,6	1,1	2,1
 BAA	0,0	0,3	0,0
<i>Eksport</i>	0,0	0,3	0,0
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0
 Tojikiston	2,9	11,3	6,4
<i>Eksport</i>	2,6	9,3	5,7
<i>Import</i>	0,3	2,0	0,7
 Eron	2,2	4,9	3,0
<i>Eksport</i>	1,0	1,9	1,9
<i>Import</i>	1,2	2,9	1,1
 Buyuk Britaniya	0,0	0,0	0,2
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
<i>Import</i>	0,0	0,0	0,1
 Italiya	4,8	44,1	4,8
<i>Eksport</i>	-	-	0,0
<i>Import</i>	4,8	44,1	4,8
 Polsha	0,6	0,8	1,3
<i>Eksport</i>	0,4	0,2	0,9
<i>Import</i>	0,2	0,6	0,4



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	559,1	112,7	100,0
Boyovut t.	43,2	143,2	7,7
Guliston t.	10,7	79,3	1,9
Mirzaobod t.	25,8	104,2	4,6
Oqoltin t.	5,9	81,3	1,1
Sardoba t.	13,1	2,5 m.	2,4
Sayxunobod t.	33,7	100,6	6,0
Sirdaryo t.	191,9	100,0	34,3
Xovos t.	30,9	179,2	5,5
Guliston sh.	45,7	75,5	8,1
Shirin sh.	1,5	59,9	0,3
Yangiyer sh.	156,4	142,3	28,0

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Yangiyer sh.

156,4

Guliston sh.

45,7

Sirdaryo

191,9

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Oqoltin

5,9

Guliston


10,7

Sirin sh.

1,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **34,3 %** ulush bilan **191,9** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,3 %** ulush bilan **1,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln. AQSH dollarida)



2023- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,0 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,7 %** ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **0,6 %** ga kamayib va jami TSAdagi ulushi **53,1 %** ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, **262,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **66,5** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **196,0** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 87,2
Eksport – 36,1
Import – 51,1



Qozog'iston

TSA – 158,8
Eksport – 20,7
Import – 138,1



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 7,1
Eksport – 2,1
Import – 5,0



Belarus

TSA – 1,2
Eksport – 0,3
Import – 0,9



Tojikiston

TSA – 6,4
Eksport – 5,7
Import – 0,7



Ukraina


TSA – 0,9
Eksport – 0,9
Import – 0,0




Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**15,6 %**), Qozog'iston (**28,4 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**1,3 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **254,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **59,2** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **195,1** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma‘lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **143** taga yetdi va ular tomonidan **232,6** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **17,4 %** ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta‘minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi % da)



Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo‘yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	198,1	232,6	126,0	117,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	81,6	129,0	108,4	158,1	41,2	55,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	0,0	3,9 m.	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,4	5,5	78,5	58,7	4,8	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	124,6	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,0	0,0	8,0	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	9,5	9,3	3,7 m.	97,9	4,8	4,0
Sanoat tovarlari	73,3	67,4	167,5	91,9	37,0	29,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	5,4	3,9	122,3	71,3	2,7	1,7
Turli xil tayyor buyumlar	16,5	15,9	92,0	96,3	8,4	6,9
Xizmatlar	1,4	1,4	148,6	98,9	0,7	0,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,6 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**29,0 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**55,5 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**6,9 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	109 475,8	183,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2,6	1,0
Sabzavotlar va mevalar	18 958,3	100,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	20,6	22,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	111,6	558,0 m.
Tamaki va tamaki mahsulotlari	7,0	23,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 959,2	59,4
Qog'oz massasi va makulatura	2 029,0	58,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3 124,3	83,9
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	2 848,5	52,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 301,5	29,7 m.


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	47 581,1	91,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	8 721,2	112,7
Cho'yan va po'lat	741,3	5,5 m.
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	9 994,2	86,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	5,8	2,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 433,6	73,2
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	15 071,1	106,1
Har xil tayyor buyumlar	420,5	36,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	387,2	123,1

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga **66,5** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **28,6** % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln.
AQSH
dollarida)



2023- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **94,5** % ni tashkil etdi.





SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	39 663,6	36 114,8	135,4	91,1	9	7
Turkiya	14 943,6	12 667,6	2,0 m.	84,8	7	8
XXR	35 964,7	32 833,8	112,4	91,3	10	6
Qozog‘iston	15 978,4	20 677,2	111,2	129,4	11	3
Afg‘oniston	60 879,4	11 0091,9	108,3	180,8	12	2
Qirg‘iz Respublikasi	2 060,0	2 069,4	71,6	100,6	14	4
Tojikiston	9 292,6	5 670,4	3,6 m.	61,0	6	10
BAA	273,3	68,9	5,7 m.	25,2	4	14
Pokiston	6 679,7	3 613,8	101,9	54,1	13	11
Niderlandiya	42,6	0,0	0,0	0,0	17	17
Eron	1 915,7	1 918,8	190,1	100,2	8	5
Belarus	434,4	288,8	14,7 m.	66,5	1	9
Polsha	234,0	866,7	53,6	3,7 m.	15	1
Ozarbajjon	794,7	185,3	3,6 m.	23,3	5	15
Turkmaniston	746,5	231,5	5,9 m.	31,0	3	13
Buyuk Britaniya	-	97,5	0,0	0,0	16	16
AQSH	130,8	67,1	7,1 m.	51,3	2	12



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-avgust)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	232,6	117,7	100,0
Boyovut t.	21,6	155,7	9,3
Guliston t.	9,5	77,0	4,1
Mirzaobod t.	13,2	68,7	5,7
Oqoltin t.	3,4	77,5	1,5
Sardoba t.	2,7	105,2	1,2
Sayxunobod t.	20,8	106,0	9,0
Sirdaryo t.	55,0	98,5	23,6
Xovos t.	6,6	57,4	2,8
Guliston sh.	14,1	82,2	6,1
Shirin sh.	0,9	60,2	0,4
Yangiyer sh.	84,1	2,1 m.	36,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Yangiyer sh. 84,1

Sirdaryo 55,0

Boyovut 21,6

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Oqoltin 3,4

Sardoba 2,7

Shirin sh. 0,9

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **36,3** % bilan **84,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri **0,4** % bilan **0,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oylarida **61,8** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **77,3 %** yoki **26,9** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (**16,2 %**), Pokiston (**16,5 %**), Qozog'iston (**34,5 %**), hamda XXR (**15,0 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **19,0 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,0 %** ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **8,2 %** ni tashkil etdi.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-avgust, qiymati)

<p>Pomidor</p> <p>1 286,9 ming. AQSH dollari</p> <p>819,8 tonna</p> 	<p>Karam</p> <p>1 435,6 ming. AQSH dollari</p> <p>10 985,7 tonna</p> 	<p>Olma</p> <p>123,7 ming. AQSH dollari</p> <p>349,9 tonna</p> 	<p>Piyoz</p> <p>3 457,3 ming. AQSH dollari</p> <p>23 032,6 tonna</p> 
<p>Uzum yangi yoki quritilgan</p> <p>1 025,5 ming. AQSH dollari</p> <p>1 227,9 tonna</p> 	<p>Grek yong'og'i</p> <p>169,6 ming. AQSH dollari</p> <p>65,9 tonna</p> 	<p>Bodring</p> <p>150,1 ming. AQSH dollari</p> <p>199,4 tonna</p> 	<p>Limon</p> <p>10,0 ming. AQSH dollari</p> <p>14,2 tonna</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-avgust)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	6 792,3	3 076,3	16,2
 Pokiston	1 096,3	3 127,0	16,5
 Qozog'iston	43 822,4	6 542,6	34,5
 XXR	3 942,5	2 838,5	14,5
 Afg'oniston	420,2	241,2	1,3
 Belarus	329,1	288,8	1,5
 Tojikiston	1 386,5	570,7	3,0
 Boshqa davlatlar	3 984,9	2 273,2	12,0

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-avgust oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **34,5** %) tashkil qilmoqda.




SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **326,5** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **109,5** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**17,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**46,7** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**15,5** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,5** % ga va **326,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	298,4	326,3	94,9	109,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	111,2	128,1	122,3	115,1	37,3	39,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	16,3	10,7	159,8	75,8	5,5	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	8,4	22,8	17,1	2,7 m.	2,8	7,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,4	7,0	72,1	158,4	1,5	2,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	50,3	56,7	158,7	112,6	16,9	17,4
Sanoat tovarlari	17,4	18,5	87,4	106,2	5,8	5,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	86,0	73,9	86,1	56,0	28,8	22,6
Turli xil tayyor buyumlar	4,3	6,3	65,2	145,9	1,4	1,9
Boshqa tovarlar	0,1	2,8	-	0,0	0,0	0,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust)

XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	112 577,9	121,3
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	46,5	19,2
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	6 897,5	87,6
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 810,9	93,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	3 444,1	52,9
Probka va yog'och-taxtalar	3 817,3	83,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4 876,0	2,8 m.
Ko'mir, koks va briketlar	17 970,6	2,7 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6 934,1	158,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	21,5	4,2 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	957,9	58,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 938,9	58,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 390,9	88,5
Bo'yaydigan va terini oshlovch moddalar va bo'yoqlar	12 158,0	150,0


XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	4 229,3	111,4
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 825,3	191,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	4 134,3	2,2 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	4 982,7	61,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	1 821,4	4,2 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	40 831,9	59,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	25 854,8	2,3 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	3 860,2	157,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 718,4	2,3 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 055,6	78,7
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 038,8	199,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	198,7	45,5



2023- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **60,0** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **10,7** % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)



2023- yil yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyati **27** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Germaniya, Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Fransiya) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust, % da)





SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Germaniya	5 295,9	3 112,5	25,9	58,8	17	14
Rossiya	34 882,4	51 103,9	37,3	148,2	15	7
XXR	52 189,9	73 386,3	104,0	140,6	11	8
Qozog'iston	115 390,2	138 150,9	116,4	119,7	8	10
Turkiya	10 166,6	11 122,7	109,3	109,4	9	11
Koreya Respublikasi	7 164,3	1 121,2	3,7 m.	15,6	3	18
Litva	1 209,7	7 669,1	52,0	6,3 m.	14	2
Fransiya	977,0	1 718,0	108,5	175,6	10	5
Niderlandiya	1 232,6	2 114,0	193,6	171,5	6	6
Turkmaniston	4 184,3	12,0	102,5	0,0	12	20
Hindiston	1 067,4	2 121,9	180,1	198,8	7	3
Belarus	539,1	888,1	81,5	164,7	13	4
Italiya	44 034,9	4 818,5	9,2 m.	10,9	1	19
Buyuk Britaniya	9,3	94,3	20,5	10,1 m.	18	1
Eron	2 946,9	1 043,1	2,4 m.	35,4	5	16
Polsha	569,6	370,9	3,1 m.	65,1	4	13
AQSH	34,2	45,5	36,4	132,9	16	9
Estoniya	260,6	80,3	-	30,8	20	17
Avstrya	1 075,0	407,4	9,9	37,9	19	15
Qirg'iz Respublikasi	4 644,5	5 045,8	8,1 m.	108,7	2	12



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-avgust)

	Hajm Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	326,5	109,5	100,0
Boyovut t.	21,6	132,7	6,6
Guliston t.	1,2	105,1	0,4
Mirzaobod t.	12,6	2,2 m.	3,9
Oqoltin t.	2,4	87,4	0,7
Sardoba t.	10,4	4,1 m.	3,2
Sayxunobod t.	12,9	93,0	4,0
Sirdaryo t.	136,9	100,6	41,9
Xovos t.	24,3	4,2 m.	7,5
Guliston sh.	31,3	72,7	9,6
Shirin sh.	0,5	59,3	0,2
Yangiyer sh.	72,2	102,7	22,0

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat import tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **41,9** % bilan **136,9** mln. AQSH dollarini tashkil qildi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi **73,9** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **14,1** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **22,6** % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust)




2023- yil yanvar-avgust oylarida mashina va transport asbob-uskunolari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,1** mln. AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Fransiya — **1,0** mln. AQSH dollari (**1,3** %), XXR — **42,1** mln. AQSH dollari (**57,0** %) va Turkiya – **7,6** mln. AQSH dollari (**10,3** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-avgust oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **18,5** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,2** % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **5,7** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (**5,0** mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**2,8** mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**4,1** mln. AQSH dollari), rangli metal (**0,6** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.